

## AJDODLAR MEROSI-BEBAHO XAZINA

Haydarov Xushnodbek Ikromjon o`g`li

JDPI Tarix fakulteti

Tarix o`qitish metodikasi yo`nalishi

II bosqich 203- guruh talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallifning buyuk ajdodlarimizning boy merosini asrab-avaylash , ularni chuqur o`rganish va ular asosida yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash to`g`risidagi fikrlari bir qancha manbalar asosida bayon qilingan.

**Kalit so`zlar:** *Vatan, renessans, prezident, YUNESKO, vatanparvarlik, burch, muqaddas qadamjo, qo`lyozma, kelajak avlod*

**Аннотации.** В этой статье богатое наследие автора наших великих предков чтобы сохранить их в углубленное изучение и обучение молодых людей на основе мнений существует на некоторых из источников объяснил

**Ключевые слова:** *Родина, ренессанс, президент, ЮНЕСКО, патриотизм, долг, священные, место, почерк, новое, поколение*

**Annotation.** In this article the author`s rich heritage of our great ancestors to preservs their in-depth study and to educate young people on the basis of opinions exist on some of the sources explained

**Key words:** *Motherland, renaissance, president, UNESCO, patriotism, duty, sacred places, hand writing, the next generation*

Vatanimiz boy qadimiy tarixga ega. Turon, Turkiston, Movorounnahr nomlari bilan shuhrat topgan bu mamlakatning va o`z mehnati bilan uni obod etgan xalqning o`tmishi g`oyat qiziqarli va ibratlidir. O`z ilmiy kashfiyotlari bilan jahon tamadduniga bebaho hissa qo`shgan allomalarning soni, ta`bir joiz bo`lsa “sifati” bilan ham haqli ravishda faxrlana oladigan mamlakatlar, xalqlar kam uchraydi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>A.Muhammadjonov “O`rta asrlar tarixi” “Sharq” Toshkent 2017-yil 197-201-betlar

Ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ajdodlarimiz merosini asrash, o‘z holicha kelajak avlodga yetkazish borasida hukumatimiz tomonidan bir qator qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Senatining 2009-yil 9-oktabrda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” qabul qilgan qonuni yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda qabul qilingan “Moddiy va ma’naviy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmoni va 2018-yil 16-apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, “Boysun madaniy muhiti”, “Shoshmaqom musiqasi”, “Navruz”, “Katta ashula”, ”Askiya”, “Polov madaniyati va an‘analari” nomzodlari insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga, Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro‘yxatiga kiritilganligi yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e’tirof etilganiga yorqin misol bo‘la oladi<sup>3</sup>.

Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimi yanada takomillashtirildi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy

---

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” mavzusidagi nutqida “Xalq so‘zi” gazetasi 2018-yil 18 iyundagi sonidan

3I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch “Ma’naviyat” T:2008 150-152- betlar

boylklarni tadqiq etish markazi va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi.

Sharq-u G'arbni o'zaro bog'lagan buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, astronomiya, geografiya, tarix, etnografiya, tibbiyot, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi<sup>4</sup>. Agar Yevropa Uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san'at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodiziya, farmokologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa, va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo'ladi<sup>5</sup>.

Aksariyat taniqli g'arb olimlarining e'tiroflaricha hozirgi kunda butun jahon, ayniqsa, eng rivojlangan mamlakatlarida foydalanilayotgan ilg'or texnologiyalardan tortib kundalik eng zarur iste'mol buyumlarining dunyo yuzini ko'rish zamirida musulmon olimlarining ilmiy kashfiyotlari yotibdi. Hozirgi zamon raqamli texnologiyalari al-Xorazmiyning algoritmisiz, zamonaviy tibbiyot Ibn Sinoning "Tib qinunlari"siz, arifmetika, matematika, astronomiya, ma'dansunoslik Beruniy dahosi yaratgan asarlarsiz, fazo astronomiyasi Farg'oniy hamda Mirzo Ulug'bekning mashaqqatli mehnatlarisiz hozirgi darajaga yetmagan, yeta olmagan bo'lardi. Qolaversa sovun, qalam, gul yog'i, hammom, kanalizatsiya kabi oddiy va muhim ashyolar ilk musulmon renessansi paytida kashf qilindi hamda Ispaniya orqali va tijorat yo'li bilan Yevropa va butun dunyo mamlakatlariga tarqaldi.

Movorounnahr va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti bilan bir qatorda, yozma adabiyoti ham yuzaga

---

4O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 15-maydagi Samarqand shahridagi konferensiyada so'zlagan nutqi "Xalq so'zi" gazetasi 2014-yil 16-maydagi sonidan

<sup>5</sup>I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch "Ma'naviyat" T:2008 168-170-betlar

keldi va rivojlandi. Qator yirik asarlar bitildi. Ulardan eng nodirlari Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” kabi asarlarini olishimiz mumkin<sup>6</sup>. XV asr badiiy adabiyoti ravnaqida buyuk davlat arbobi, ulug‘ shoir, olim, mutafakkir Alisher Navoiy va buyuk fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiyning hissalarini g‘oyat buyukdir. Navoiy butun faoliyati va ijodini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o‘zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan san‘at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi. U o‘zbek adabiy tili, o‘zbek mumtoz adabiyotini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Navoiy umri davomida “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” kabi nodir asarlar yaratdi. Bundan tashqari bu zaminda yurt ozodligi uchun kurashgan, yurtning har bir qarich yerini o‘z jonidan ustun qo‘ygan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik kabi sarkardalar, mamlakatdan mo‘g‘ullarni quvib chiqarib, ulkan va poyonsiz saltanat tuzgan Amir Temur kabi buyuk zotlar yashab o‘tgan. Shunday buyuk zotlar, avliyolar, allomalar avlodimiz biz! Bobolarimizdan bizga meros bo‘lib qanchadan qancha kitoblar, muqaddas qadamjolar, qo‘l yozmalar meros bo‘lib qolgan. Biz yoshlar ularni o‘z holicha asrash, o‘qib o‘rganish va shu holatida kelajak avlodga yetkazib berishimiz kerak. Shu o‘rinda muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning bir fikrlarini keltirib o‘tishni joiz topdim : “Men yoshlarga murojaat qilar ekanman, ularga doimo: “Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g‘ururlanishimiz kerak”, deb aytaman. Ayni vaqtda “Faqat g‘ururlanishning o‘zi yetarli emas, kelinglar, o‘zimiz ham xuddi ular kabi, mana shu bebaho merosga o‘z hissamizni qo‘shaylik!”, deb ta’kidlayman”<sup>7</sup>. Muhtaram birinchi prezidentimiz ta’kidlaganlaridek biz yoshlar nafaqat buyuk allomalarimiz merosini asrab avaylashimiz balki ularni chuqur o‘rganib, tahlil qilib, yurtimiz kelajagi uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Hozir ayni damda bizda bu ishni bajarishimiz va yurtboshimiz ishonchini oqlashimiz uchun yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ulardan unumli foydalangan

---

6.A.Muhammadjonov “O‘rta asrlar tarixi” “Sharq” Toshkent 2017-yil 182-bet

7.I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz-kelajak yo‘q” “Sharq” T:1998 132-bet

holda biz ham o`z renessansimizni yaratishimiz va Vatanimiz nomini dunyoga tanitishimiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. A.Muhammadjonov “O`rta asrlar tarixi” “Sharq” Toshkent 2017-yil
2. I.A.Karimov Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch “Ma`naviyat” T:2008
3. I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz-kelajak yo`q ”“Sharq” T:1998
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 15-maydagi Samarqand shahridagi konferensiyada so`zlagan nutqi “Xalq so`zi ”gazetasi 2014-yil 16-maydagi soni
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy barqarorlikni ta`minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” mavzusidagi nutqida “Xalq so`zi” gazetasi 2018-yil 18-iyundagi soni